

NIG'MONOV Abdulazizxon

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi.
a.nigmonov@iiaau.uz*

XO'JANDIYNING “LATOFATNOMA” ASARINING TURKIY ADABIYOT NOMA JANRI RIVOJIDAGI O'RNI

МЕСТО «ЛАТОФАТНОМА» ХОДЖАНДИ В РАЗВИТИИ ЖАНРА ПОСЛАНИЕ ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

THE PLACE OF “LATOFATNOMA” KHOJANDY IN THE DEVELOPMENT OF THE GENRE MESSAGE OF TURKISH LITERATURE

Аннотация: Bugungi kunda turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning adabiyoti va bu adabiyotning shakllanish tarixi, shubhasiz, uzoq davrlarga borib taqaladi. BU taraqqiyot davomida turkiy adabiyot xilma-xil janrlar bilan boyib bordi. Arab, fors-tojik adabiyotiga xos bo'lgan janrlarning turkiy tilda go'zal namunalari yaratildi va ushbu janrlar rivojini bu namunalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu maqolada noma janrining taraqqiyoti, turkiy adabiyotga noma janrining kirib kelishi va turkiy nomachilik tarixida Xo'jandiy qalamiga mansub “Latofatnoma” asarining tutgan o'rni hamda uning o'ziga xosliklari, boshqa turkiy nomalardan farqlari va o'xshashliklari tahlil qilinadi.

Таянч сўз ва тушунчалар: adabiyot, janr, noma, dahnama, masnaviy, g'azal, obraz, peyzaj lirikasi.

Аннотация: Сегодня литература туркоязычных народов и история становления этой литературы, безусловно, уходит в далекое прошлое. В ходе этого развития турецкая литература обогатилась множеством жанров. В турецком языке созданы прекрасные образцы жанров, характерных для арабской, персидской и таджикской литературы, и развитие этих жанров невозможно представить без этих образцов. В данной статье анализируется развитие жанра послание, внедрение жанра послание в тюркскую литературу или роль произведения “Латофатнома”

Ходжанди в истории тюркского послание и его особенности, отличия и сходство с другими тюркскими посланиями.

Опорные слова и понятия: литература, жанр, послание, дахнама, маснави, газель, образ, пейзажная лирика.

Annotation: Today, the literature of the Turkish-speaking peoples and the history of the formation of this literature, of course, goes into the distant past. In the course of this development, Turkish literature has been enriched by many genres. The Turkish language has created excellent examples of genres characteristic of Arabic, Persian and Tajik literature, and the development of these genres cannot be imagined without these examples. This article analyzes the development of the genre of the message, the introduction of the genre of the message into Turkic literature or the role of the work “Latofatnom” by Khojandi in the history of the Turkic message and its features, differences and similarities with other Turkic messages.

Key words: literature, genre, message, dakhnama, masnavi, ghazal, image, landscape lyrics.

KIRISH

Bugungi kun adabiyoti, uning janrlari hamda mavjud qonuniyatlaridagi o'zgarishlarning asosi, albatta, adabiyotning evolyutsiyasi va qonuniyatlarning tarixiy taraqqiyotiga borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan mumtoz turkiy adabiyot va undagi janrlar tizimi turkiy adabiyotning bugungi holati haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun zamin yaratadi.

Turkiy qavmlar tomonidan islom dini qabul qilingandan e'tiboran islom madaniyati o'zida aks ettirgan va turkiy muallif tomonidan yozilgan eng qadimiy asar bu – Yusuf Xos Hojib tomonidan hijriy 462/milodiy 1069-70-yilda yozilgan “Qutadg'u bilig” asaridir. XI asrda Tutkistonda yozilgan ushbu asardan keyin bu xududlarda 15 asrning boshlariga qadar ko'plab siyosatnoma, nasihatnoma, manoqiblar, nasabnoma va lug'at asarlar, Qur'oni Karim tarjimalari, shuningdek, boshqa diniy, tasavvufiy-axloqiy va adabiy asarlar bitilgan.

Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”i, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asari, Sulaymon Otaning “Oxir zamon Kitobi”, “Boqirg'on kitobi” va “Maryam kitobi” kabi kichik asarlari, “Devonu lug'ati-t-turk” va “Muqaddimatu-l-adab” kabi lug'atlar, “Tazkirayi Satuk Bug'roxon” va “Shajarayi ansob” kabi

manoqibnoma va nasabnoma turidagi asarlar XI-XII asrlarda Turkistonda bitilgan islom-turk madaniyatining ilk davrlarida oid shoh asarlar bo'lgan.

Hijriy 631/milodiy 1234-yili Qul Ali tomonidan nazmiy shaklda bitilgan “Qissayi Yusuf” asari Yusuf alayhissalom va Zulayho o'rtasidagi ishqni asarning tayanch mavzusi sifatida qalamga olgan ilk turkiy asardir. Majoziy ishqni ifodalagan bu dostonidan boshqa “Muinu-l-Murid”, “Javohiru-l-asror” va Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” kabi diniy-axloqiy asarlari hamda “Tibyoti at-turkiy”, “Xilyatu-l-inson” va “Halbatu-l-lison” nomli lug'atlar esa XIII asrda dunyoga keldi.

Hijriy 741/milodiy 1340-yillar atrofida Qutb tomonidan bitilgan Xusrav va Shirin dostoni esa shu mavzuda bitilgan turkiy asarlarning eng qadimiysidir. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”, Berka Faqihning “Irshodu-l-muluk”, “Kitabu-l-fiqh”, “Miftohu-l-adl asarlari”, Kardariyning “Nahju-l-farodis”, “Merojnoma”, “Tazkiratu-l-avliyo” kabi asarlari XIV asrdan bugungi kunga qadar yetib kelgan diniy, tasavvufiy-axloqiy va muhabbat mazmunidagi asarlardir.

754-hijriy/1353- milodiy yilda Xorazmiy tomonidan bitilgan “Muhabbatnoma” asari esa Turkiy adabiyot tarixida alohida qiymatga ega. U o'z davriga qadar faqatgina fors-tojik adabiyotida mavjud bo'lgan, dah noma(o'n noma) turkumidagi asarlarning turkiy adabiyotdagi ilk namunasi bo'lib, turkiy adabiyot tarixidagi nomachilik an'anasi aynan shu asardan boshlangani bilan “Muhabbatnoma” alohida e'tiborga loyiq [1,6].

ASOSIY QISM

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asariga, shuningdek, dah noma turkumidagi asarlarga bo'lgan qiziqish va e'tibor keyingi yillarda ham davom etib, ushbu asarlardan ilhomlangan holda bir qancha naziralar, dostonlar yaratiladi. Xo'jandiyning “Latofatnoma” asari ham, aynan, “Muhabbatnoma”ga javob tarzida bitilgan asarlardan biridir.

Taxminan 15 asrning boshlarida bitilgan deya qaraladigan ushbu asar haqida ma'lumot berishdan avval dah noma turkumidagi asarlar haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Dahnoma forsha dah va noma so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan bo'lib, dah “o'n” sonini bildiruvchi so'z. Shuningdek, tarjimon

Osim ta'kidlashicha, dah so'zining yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish ma'nosi ham bor [4,157]. Noma esa “maktub”, “farmon” ma'nolarini bildiradi. Ba'zan asarlar nomlarida ham qo'llaniladi: Shohnoma, Boburnoma kabi [4,540]. Demak, biz dahnomani “yaxshilikni tilovchi, yomonlikdan qaytaruvchi o'n maktub, o'n kitob” deya ta'rif etishimiz mumkin.

Dahnoma ayni vaqtda adabiy atama bo'lib, eng qadimiy namunlari XIV asrga oid bo'lgan va aksariyat hollarda Dahnoma deya atalgan nazmiy adabiy asarlarni bildiradi. Ishqiy maktublardan tashkil topadigan bu tur asarlarda majoziy yoki haqiqiy ishq ifoda etilib, bunday asarlarning bir qanchasi bir biriga nazira tarzida bitilgandir. Ayniqsa, bir xil tartibga, ayni vaznga egaligi, bir xil mavzuda ekanligi va 14-18 asrlar oralig'ida ko'plab nomalar yaratilganligi, bu tur asarlarning alohida janr sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.

Noma janrining shakllanishini olimlar XI asrda yashab ijod etgan fors adibi Faxriddin Asadi Gurgoniyning “Vis va Romin” masnaviysi hamda Faxriddin Iroqiyning “Ushshoqnoma” asariga bog'lashadi [5,106]. “Vis va Romin” asarining ushbu janr taraqqiyotidagi o'rni shundan iboratki, Dahnoma sarlavhasi ostida Vis nomidan bitilgan 10 ishqiy nomaning asar syujetiga singdirib yuborilganidir. Bunda har bir noma ma'shuqa (ayol) nomidan uni tashlab ketgan oshiqqa qarata yozilgan bo'lib, ma'shuqaning otashin izhorlari, ayriliq iztiroblari, umidvorlik tuyg'ulari bayon etilgan nomalar hajm jihatdan anchagina katta. 16 baytdan 50 baytgacha bo'lgan ushbu nomalarda muallif birdan ortiq holatlarni ifodalashga erisha olgan. Shuningdek, ushbu nomalarda tabiat tasviriga alohida ahamiyat beradi. Har bir noma boshlanishida vasf yetakchilik qiladi.

Asarda islomdan avvalgi davr e'tiqodlariga oid unsurlarning ko'pligi “Vis va Romin” asarining e'tibordan uzoqlashishiga va sekinlikla unutilishiga sabab sifatida ko'rsatiladi. Biroq noma janrining taraqqiyoti Nizomiy Ganjaviy va Dehlaviy kabi shoirlarning “Xusrav va Shirin” asarlarida Xusravning Shiringa, Shirinning Xusravga yozgan 10 fasllik maktublari bilan davom etadi [2, 167-168].

12 asrga kelib nomalar badiiy asarlar tarkibidan chiqib alohida asar sifatida shakllana boradi. Sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan Avhadiy, Xoja Imomiddin Faqih Kirmoniy, ibn

Imodlarning Dahnama asarlari shu davr fors-tojik tilidagi nomalarning nodir namunalari hisoblanadi.

Fors-tojik adabiyotida noma janrida bitilgan asarlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: Hokim Sanoyining "Ishqnama"si (XII asr), Faxriddin Iroqiyning "Ushshoqnama"si (XIII asr), Naqibi Sheroziyning "Dah-bob"i (XIV asr), Humomi Tabriziyning "Suhbatnama"si (XIV asr), Xoja Fazlullohi Sheroziyning "Muhabbatnama"si (XIV asr), Ibn Nasuhi Forsiyning "Dahnama"si (XIV asr), Avhaduddin Merog'iyning "Mantiqu-l-ushshoq"i (XIV asr), Rukniddin Xiraviyning "Tuhfatu-l-ushshoq" (XIV asr), Rukniddin Soyinning "Dahnama"si (XIV asr), Ubayd Zakoniyning "Ushshoqnama"si (XIV asr), Shoh Shujoning "Ruhu-l-oshiqin" (XIV asr), Imodiddin Faqih Kirmoniyning "Dahnama"si (XIV asr), ibn Imod Xurosoniyning "Ravzatu-l-muhibbin"i (XIV asr), Sharafiddin Romiyning "Dah fasl"i (XIV asr), Shayx Xaririyning "Mahbubu-l-qulub"i (XV asr), Shamsiddin Kotibiyning "Dah-bob"i (XV asr), Fattoh Nishopuriyning "Dahnama"si (XV asr), Orif Hiraviyning "Dahnama"si (XV asr), Xoja Mahmud Barsaning "Dahnama"si (XV asr), Aziz Buxoriyning "Ravzatu-l-oshiqin" (XV asr), Ayshiyi Sheroziyning "Ishratnama" (XV asr) asarlari [1,17].

Dahnomalar uch farqli usulda shakllantiriladi:

1. Faqat oshiqdan ma'shuqaga xitoban yozilgan maktublardan tashkil topadi. Bunda oshiqning ahvoli, sevgi iztirobi, hasrat, visol istagi va boshqalar bayon etiladi. Nomalardan keyin g'azallar keltiriladi. Tong nasimi oshiq va ma'shuq orasida xabarchi sifatida namoyon bo'ladi.

2. Ikki tomonlama maktublashma. Oshiqdan ma'shuqaga xitob, ma'shuqadan oshiqqa javob tarzida shakllantirilgan nomalarda oshiq va ma'shuqaning hollari, bir-biriga bo'lgan muhabbati, hijron kabilar bayon etiladi. Nomalar g'azallar va fardlar bilan bezatiladi. Oshiq bilan ma'shuq orasida ruzgor, quyosh, oyna kabilar ramziy xabarchi vazifasini o'taydi. Ma'shuqaning bee'tiborligi natijasida azob chekkan oshiq, yolvorishlar natijasida ma'shuqaning e'tiborini tortadi va yakunda uning visoliga erishadi.

3. Ishq, oshiq, ma'shuq obrazlarini o'n nomada tasavvufiy jihatdan yoritilgan nomalar. Bunday asarlarda g'azallar va tasavvufiy hikoyalar bayon etilgan masnaviylar joylashadi. Turkiy nomalarni biz har uch shaklda ham ko'rishimiz mumkin [5,106].

Bugungi kunga qadar aniqlangan turkiy nomalar quyidagilardir: Xorazmiyning "Muhabbatnama"si (XIV asr), Xo'jandiyning "Latofatnama"si (XV asr), Yusuf Amiriyning "Dahnama"si (XV asr), Sayyid Ahmad Mirzoning "Ta'ashshuqnama"si (XV asr), Shoh Ismoil Xatoyining "Dahnama"si (XVI asr), Niyoziyning "Dahnama"si (XVI asr), Fatxiyning "Dahnama"si (XVIII asr), Sharif Mehmed Mulloning "Dahnama" (XIX asr) asarlari [1,18].

Yuqorida noma janri uning takomili haqida, fors-tojik va turkiy adabiyotda yaratilgan nomalar haqida qisqacha to'xtalib o'tdik. Bu nomalar orasida Xo'jandiyning "Latofatnama" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Turkiy adabiyot tarixida dahnama turkumida yaratilgan ikkinchi asar – "Latofatnama"ning muallifi Xo'jandiy haqida yetarlicha ma'lumot yo'q. Uning tavallud va vafot yillari, asl ismi hali fanga ma'lum emas. Faqatgina taxallusidan Xo'jand shahridan ekanligi ma'lum, xalos. Shuningdek, "Muhabbatnama"ga nazira tarzida bitilgan "Latofatnama"ning Xorazm hokimi Kichik Muhammad (vaf. 828/1424)ning og'li Mahmud Tarxonga bag'ishlanganidan bilishimiz mumkinki, muallif XIV asrning oxiri XV asr birinchi yarmida yashab ijod etgan. Shoirdan bizga qadar faqat "Latofatnama"gina yetib kelgan.

Uning quyidagi baytlaridan boshqa bir qancha asarlari bo'lgani taxmin etilsa-da kunimizga qadar ular fanga ma'lum bo'lmagan.

Tabi'atdin chikardim nazm bisyār

Acunda bulmadim ikev haridār

Xo'jandiyning "Latofatnama"si yuqorida qayd etib o'tilganidek, birinchi tur nomalardan bo'lib, oshiqning ma'shuqaga xitoban yozilgan maktublaridan tashkil topadi. Asarning o'ziga xosliklari haqida quyidagilarni aytish mumkin.

"Latofatnama" masnaviy shaklida nazmda, hazaj bahrining mafoilun mafoilun faulun vaznida bitilgan. Asarning muqaddima qismida 22 baytlik hamd, 15 baytlik naat, 26 baytlik sababi nazm (asarning yozilish sababi) va 20 baytlik Mahmud Tarxon madhi keltiriladi. So'ngra asosiy qism – nomalar keladi. Birinchi noma – 25 bayt, ikkinchi noma – 26 bayt, uchinchi noma – 23 bayt, to'rtinchi noma – 24 bayt, beshinchi noma – 26 bayt, oltinchi noma – 25 bayt, yettinchi noma – 25 bayt, sakkizinchi noma – 24 bayt, to'qqizinchi noma – 25 bayt va o'ninchi noma – 25 baytdan iborat. Xotima qismi esa 13 baytni tashkil etadi.

“Latofatnoma” bir oshiq yigitning iltimosiga ko‘ra yozilgan bo‘lib, muallif bu haqida “Sababi nazmi kitob aytur” sarlavhali qismda shunday deydi:

Tefekkürde turur êrdim sehergâh
Êşikdin bir cevânî kirdi nâ-gâh
Firâk otında bağır pâre bolgan
Acunda ‘işk üçün âvâre bolgan (44-45)
Ayur sên-sên êl içre uz be-ğâyet
Tiler-mên kılsağan bizge ‘inâyet
Sêni şâ‘ir tēp ayturlar hâlâyık
Sözündin tuhfе kēltür bizge lāyık
Tiler-mên sêndin ay kân-i melâhât
Ki bërseñ söz bile cānımğa rāhât
Maħabbet cāmıdın içseñ şarābī
Maħabbet-nāmeğa aysañ cevābī
Qabūl kıldım kabūliyyet yok êrken
Şalāh urdum şalāhiyyet yok êrken [1,19-20].

“Latofatnoma” Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asariga taqlidan yozilgan bo‘lsa-da, fors-tojikcha nomalar uchramaydi. Asar boshdan oxirgacha turkiyda bitilgan. Bu dalil Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asarini yaratishda Xorazmiy an‘anasiga tayanganligini, undan ijodiy oziq olganligini ko‘rsatadi.

Latofattin telim hangoma qo‘ydum
Aning otin Latofatnoma qo‘ydum.
Tilimda so‘z, elimda homa bo‘ldi
Latofatnoma ham o‘n noma bo‘ldi.

Bu birinchidan Xo‘jandiy “Latofatnoma”sining ekspozitsiyasi Xorazmiy asaridagi kabi bir-biriga yaqinligida ko‘rinadi. Har ikkala asarda ham oshiqning ma’shuqaga qarata yozgan maktublari keltiriladi. Asarning asosi davr ruhini, hayotning eng muhim masalasi bo‘lgan tasavvuf falsafasini, hayot go‘zalligini, insoniy muhabbatni kuylashdan iboratdir.

Shoir asarni bitirgandan so‘ng unga Mahmud Tarxongina yuqori baho berishini taxmin etib, “Latofatnoma”ni unga taqdim etadi:

Sözüm çün dānedür nâ-dān ne bilsün
Belî hayvân suvin hayvân ne bilsün
Hired aytur maña tarhangâ bargil
Selâtin serveri sultānğa bargil
Ma‘ānī bir beden tēg rūhi oldur
Qamuğ şâ‘irleriñ memdūhi oldur
Cemāli birle cānim tāze bolsun
Şehim ati belend-āvāze bolsun
Özüm birle özüm endişe kıldım
Şehim medh u tēnāsın pīşe kıldım

Eyâ fahr-i selâtin şâh-i devrân
Zamāne mefhari maħmūd tarhân

Dastlabki uch noma ma’shuqaga bag‘ishlangan bo‘lib, ma’shuqaga qarata “Ayo sardaftari xuboni olam”, “Ayo qaddi sanubar, chehrasi gul”, “Ayo nozik badanlar ko‘rkka boyi” kabi xitoblar bilan boshlanadi, Ikkinchi maktubda oshiq yorning og‘zini mimga, ko‘zlarini esa sodga o‘xshatadi:

Tar ağzın mīm ü fettân közleriñ şād
Cihānda siz bigin yok âdemî-zād (113)38

To‘rtinchi maktub tong nasimiga murojaat bilan boshlanib, oshiq undan ma’shuqa bilan uning o‘rtasida xabarchi bo‘lishini so‘raydi:

Şabā mēndin selām ol bī-vefāğa
Büt-i nâ-mihr-bân kân-ı cefāğa (158)

Keyingi maktublarda yana ma’shuqaga murojaat qiladi: “Ayo dilbar, kel endi, yoz ochildi”, “Ayo sarvi sihi bo‘yluq, beli qil”, “Ayo qaddi sanubar, haddi lola”, “Ayo husn ichra olam benaziri”, “Alo, ey ahdi yolg‘on, bevafo yor”, “Ayo ahdi vafosiz dilrabo yor” kabi xitoblar orqali ma’shuqaga dardlarini bayon etadi.

Maktublar soqiyga murojaat bilan tugaydi: Birinchi maktub: “Kel, ey soqiy, sharob-i nob keltir (108), ikkinchi maktub: Kel, ey soqiy, bu kun majlis quralim (134), uchinchi maktub: Kel, ey soqiy, ichalim jom-i jamni (157), to‘rtinchi maktub: Kel, ey soqiy, ichalim jom-i gulgun (181), oltinchi maktub: Kel, ey soqiy, sharobi arg‘uvon ber (231), yettinchi maktub: Kel, ey soqiy, qadah keltur icholing (256), sakkizinchi maktub: Kel, ey soqiy, keturgil jomi gulfom (280), to‘qqizinchi maktub: Kel, ey soqiy, icholim jomi jamni (305), o‘ninchi maktub: Kel, ey soqiy, sharobi nob keltur (330) [1,21-22].

“Muhabbatnoma”da Xorazmiy taxallusi 16 o‘rinda kelgan bo‘lsa, “Latofatnoma”da Xo‘jandiy taxallusi 6 o‘rindagina ishlatilgan. Shoirning taxallusi “Latofatnoma”ning turli o‘rinlarida: Hamd qismida (20-bayt), Naatda (35-bayt), Mahmud Tarxon madhida (81-bayt), oltinchi nomada (230-bayt), sakkizinchi nomada (279-bayt), o‘ninchi nomada (329-bayt), xotimada (336, 338, 340-bayt) keladi.

Xo‘jandiy bu asarni yaratishda Xorazmiy izidan borgan bo‘lsa-da, kompozitsiya, obrazlar ifodasi, tabiat manzaralarini yaratishda o‘ziga xoslikka erishadi. “Latofatnoma”da Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidagi kabi g‘azallar, qit‘a, fard, masnaviy janrlaridagi asarlar yo‘q.

Muhabbatnomada har bir nomadan keyin 3 baytlik masnaviy keltirilib unda soqiyga murojaat qilinadi va ma'lum ma'noda noma yakunlanadi. "Latofatnoma"da esa har bir nomaning oxirida soqiyga murojaat qilinuvchi bir bayt keltiriladi va noma yakunlanadi. Nomaning g'oyaviy yo'nalishiga qarab soqiyga murojaat ham o'zgarib boradi. Masalan, oshiqning o'ta ziddiyatli ruhiy kayfiyatini ifoda etuvchi yettinchi noma shunday yakunlanadi:

Kel, ey soqiy, qadah keltur icholing
Zamone usrubon, jondin kecholing.

Bu hol soqiyga murojaatning aynan shu nomadagi ruhiyatni aks ettirgan yakuniy xulosa hamda muallif qarashlarining ifodasi ekanligini bildiradi [3,24].

"Latofatnoma"ni shu turdagi boshqa asarlardan ajratib turadigan yana bir xususiyat shundaki, muallif asarda peyzaj lirikasiga alohida ahamiyat beradi. U asar muqaddimasida erta tong lavhasini quyidagicha tasvirlaydi:

Seher vaktinde Doğu sultanının
Yüzünün güzelliğinden dünya aydınlandı.
Alıp nîze eligge husrev-i çîn
Habeş sultânını kavdı cihândın
Şeh-i maşrık 'alem 'âlemğa urdı
Sipâh-ı zeng kôrkup kôz yaşurdı
Çıkardı erse şeh hancer bêlidin
Habeş kaçtı revânî rûm êlidin
Sipâh-ı türk boldısa sipâhî
'Azîmet tutdı hindûlar sipâhî
Hôrûs-ı şubh-dem feryâd aşurdı
Kêçe zâğî yumurtğasın yaşurdı [1, 43-44].

"Latofatnoma"dagi yana bir o'ziga xosli beshinchi nomada aks etadi. Unda shoir bahor tasvirini chizishga, musaffo havo, turli tuman gullar ochilishi, qushlarning o'ynashi, bulbullar xonishi, sozandalar xonishi va boshqa manzaralarni bor jozibasi bilan tasvirlashga intiladi.

Çimenlikte gül, çiçekler çoktur,
Böcekler ipek döşeyip kalmış gibidir.
Benefşe zülfidin 'anber saçılmış
Körüp gül guncanın ağzı açılmış
Muraşsa' çiy suvıdın lâle tâcı
Cevâhir yinçüğe yok ihtiyâcı
Elikde câm-ı cem almış şakâyık
Irem bâğı bigin bolmış hadâyık
Gülistân kuşları gülğul kılışur
Yığaclar oynarında yên salışur
Çın-oğ ma'sûk u 'âşık tég çubuklar

Biri birini oynarda çubuklar
Çiçek hânıga nerges birle lâle
Başı birle tutar tün kün piyâle
Muğannî çeng ü barbat sâz kılmış
Terennüm 'andelîb âğâz kılmış [1, 65-66].

Xotima qismida shoir asarini Xorazmiy eshitsa, uni olqishlashini, maqbul ko'rishini ta'kidlaydi va asarda kamchiliklar bo'lsa-da, o'qigan insonning duosini so'raydi va bundan g'amgin ko'nglining sevinishini aytadi.

Hucendî sözlerin hvârizmî miskîn
Êşitse yollu dëp kılğaydı taḥsîn (336)
Sözümde her nêçe kim bolsa taḫşîr
Oḡur bolsañ du'âda kılma te'hîr
Oḡup ġamġîn köñülñi şâd kılğıl
Hucendîni du'âda yâd kılğıl (339-340) [1,88].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xo'jandiy o'z asarida Xorazmiy an'anaalarini davom ettirgan holda turkiy nomachilikka katta hissa qo'shadi. Garchi "Latofatnoma" asari ham boshqa nomalar kabi o'n nomadan iborat bo'lsa ham o'ziga xos tuzilishi va obrazlar tizimi bilan shu janrdagi boshqa assarlardan farqlanib turadi. U o'ziga qadar qo'llanilgan an'anaviy tasvir vositalaridan tashqari, yangi usullarni ham qo'llaydiki, bular asarning ta'sirchanligini va epikligini oshiradi. Ushbu asar o'z davri uchun katta hodisa bo'lib, "Muhabbatnoma" asaridan keyin nomachilik taraqqiyotida ikkinchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aslan Üzeyir. Hucendi. Letafet-name. –Ankara: Sonçağ academi, 2020.
2. Gandjei: "Bir Edebî Eserin Yaratılışı ve Tavsifi: Dehname 'On Aşk Mektubu'": çev. Ayşe Gül Sertkaya, İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri, – S. 11 (2001)
3. Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. – Toshkent: Fan, 1992.
4. Mütercim 'Âşim: Burhân-ı Kâtî': haz. Mürsel Öztürk - Derya Örs, Türk Dil Kurumu, Ankara 2000.
5. Vanlioğlu: "Dehname": DİA, C. 9, 1994.